

## FARG'ONADA YANGI "EKOSHAHAR" KICHIK SANOAT ZONASI TASHKIL ETILDI

**Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2022 yil 4 apreldagi VI-42-36-11-0-K/22-sonli qarori bilan, Farg'onada barpo etilayotgan "Eko shahar" hududidagi 50 hektar yer maydonida "Eko shahar" kichik sanoat zonasi tashkil etildi.**

Ushbu qaror viloyatda tadbirdorlarga qo'shimcha qulaylik va imkoniyat yaratish, ularni qo'llab-quvvatlash doirasida ishlab chiqarishning zamonaviy texnologik bazasini shakllantirish, ishlab chiqarish jarayonlariga innovatsiyalarni joriy etish, yuqori sifatli mahsulotlar yaratish va xizmat ko'rsatishni ta'minlash va shu orqali hudud sanoat salohiyatini oshirish, iqtisodiyotni mustahkamlash maqsadida qabul qilingan.

Qaror bilan, Farg'ona shahar hokimligiga Davlat aktivlari agentligi viloyat hududiy boshqarmasi, Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi va viloyat hokimligi huzuridagi "Kichik sanoat zonalarini boshqarish bo'yicha yagona Direktsiyasi" DUK bilan birgalikda sanoat zonasiga hududning tabiiy va mehnat resurslaridan kelib chiqqan holda, eksportbop va import o'rnni bosuvchi tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan loyiha tashabbuskorlarini keng jalb qilish maqsadida mazkur yer maydonlarini ochiq auktsion savdolariga ko'yish vazifalari yuklatildi.

"Kichik sanoat zonalarini boshqarish bo'yicha yagona Direktsiyasi" DUK, viloyat Savdo-sanoat palatasi, Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi va Farg'ona shahar hokimligi bilan birgalikda auktsion savdolarida g'olib bo'lган tadbirdorlik sub'ektlariga faoliyatlarini samarali yo'lga qo'yishlariga bevosita ko'maklashishi belgilab qo'yildi.

Sanoat zonasi tashkil etilishi hisobiga yaratiladigan yangi ish o'rnlariiga birinchi navbatda soha mutaxassislari, hududdagi kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan hamda uyushmagan yoshlar va xotin-qizlarni jalb qilish orqali ularning bandligini ta'minlash choralarini ko'rildi.

**[BIZNI ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**  
[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2022-04-13 18:01:54